




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2023- YIL YANVAR-IYUL OYLARI (DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 61-222-75-87

www.qrstat.uz


2023 yil yanvar-iyul oylarida



Dastlabki ma‘lumotlar bo‘yicha 2023-yilning yanvar-iyul oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi korxonalaridan 9086,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 90,8 % ni tashkil etdi.




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, 7798,7 mlrd. so‘m jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 85,8 % ni tashkil etdi.




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi kamayishining asosiy omili ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 9,2 % ga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash – 16,0 % ga, suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish – 5,6 % ga pasayishidir. Shuningdek, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 77,5 % ga oshganligi kuzatildi.

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 135,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,5 % ini tashkil etdi.




2023- yil yanvar-iyul oylarida
Oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan % da

Ohah tosh



Tabiiy gaz




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyul	2023- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Ohah tosh, tonna	137837,4	102967,3	-34870,1
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	822,2	597,2	-225,0

Gaz kondensati



Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyul	2023- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Gaz kondensati, ming t.	47,1	37,5	-9,6


2023- yil yanvar-iyul oylarida



2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7798,7 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 85,8 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi – 0,01 % ni (2022- yilning yanvar-iyul oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali– 52,3 % (62,4 %), o'rta-quyi texnologiyali– 5,1 % (4,7 %) hamda quyi texnologiyalisi – 42,6 % (32,7 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 45,3 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 73,3 %), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi – 16,9 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,1 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,3 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,1 %), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,2 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 82,2 %) tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 4,2 ming tonna tozalangan guruch (2022- yilning mos davriga nisbatan 196,6 % ga), 3,6 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i (47,7 %), 29,0 ming tonna paxta chigiti (3,9 %), 9,3 ming tonna kalava ip (3,2 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'ati kuzatildi. Shuningdek, 1833,0 ming litr aroq (3,7 %), 18,2 ming tonna paxta tolasi (1,1 %) 166,8 ming tonna portlandsement (1,5 %), 35,2 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (49,0 %) ishlab chiqarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyul	2023- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Aroq, ming litr 100 % li spirt	1902,8	1833,0	-69,8
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	2407,8	3555,6	1147,8
Paxta tolasi, t.	18411,8	18215,3	-196,5
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	69090,6	35247,7	-33842,9
Polietilen, ming t.	175,6	153,9	- 21,7
Polipropilen, ming t.	49,5	45,8	-3,7

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-iyul oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 62,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 98,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 52,1 % ni, fizik hajm indeksi 72,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4059,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,8 % ni tashkil etgan boʻlsa, uning fizik hajm indeksi 109,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 3,7 % ga oshgan boʻlsa, ishlab chiqarish hajmi 1389,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyul oylarida toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,0 % ni tashkil etgan boʻlsa, uning fizik hajm indeksi 98,7 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 6,3 % ga oshgan boʻlsa, ishlab chiqarish hajmi 1460,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyul oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 123,8 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 17,8 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 292,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022- yilning yanvar-iyul oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 103,2 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 1,9 % ni, fizik hajm indeksi 119,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 144,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2022- yilning yanvar-iyul oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 155,3 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi 92,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 107,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Mebellar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-iyul oylarida mebel mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 112,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,6 % ni, fizik hajm indeksi 220,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 125,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-iyul oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 479,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 61,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 39,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-iyul oylarida, boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sanoatining chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 154,3 %.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 61,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 39,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi.




Elektr, gaz bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1093,0 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,0 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 84,0 % ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 58,9 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlarining hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 2,1 % ga oshganligi va shahar xo'jaliging qayta foydalanishga yaroqsiz, xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 44,7 % ga kamayganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1469,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 111,4 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 16,2 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati 111,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Xo'jayli (216,7 %), Amudaryo (142,6 %), Ellikqal'a (132,0 %), Nukus (121,5 %), Shumanay (114,9 %), Beruniy (114,5 %), Chimboy (114,3 %) hamda Qorao'zak (112,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan past o'sish sur'ati Taxtakopir (46,1 %), To'rtko'l (83,8 %), Taxiatosh (94,2 %) va Bo'zatov (94,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 80,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 19,9 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 64,2 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 35,8 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 107,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 130,6 % ni tashkil etdi.

